

Ochilov Sharof Rustam o‘g‘li.

Jo‘raqulova Sabina Shermat qizi

Qurbanova Mehribonu Bahadir qizi

O‘ralov Abdumannon Iskandarovich

O‘zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu tezis orqali dorivor va manzaralni muskari o‘simgi turlari haqida to‘xtalib o‘tamiz. Ularning morfologiyasi, geografiyasi va dorivorlik fiziologiyasi haqida ma’lumotlardan kelib chiqib, uning xalq tabobatida ishlatalishi davomida nerv sistemasini tinchlantirishini anglashimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: Muskari turlari, flavanoidlar, ekstrakt, bronxit, efir moyi, dermatologik.

Muscaria - Viper piyozi (sichqonsumbuli). Oilasi: Asparagaceae— Sarsabildoshlar. Yer yuzida oxirgi 2014-yil ma’lumotiga ko‘ra 44 turi mavjud [1,2].

Muskari mayda piyozboshli (bo‘yi 40 sm dan 60 sm gacha) barglari 2-7ta qalin, tomirga yaqin. Barglarining uzunligi 10-17smga teng. Piyozi tuxum shaklida bo‘lib, diametri 2 sm ga teng. Gul o‘qi bargsiz bo‘lib uchi qalin ko‘p gulli shoxcha bilan tugaydi. Gullari ko‘k moviy yoki siyohrang gulbandi qisqa, eng yuqoridagi gulchalari naslsiz urug‘ tugmaydi. Gulkosasi bargli bochkasimon 6 ta qisqa tashqi tomonga qayrilgan tishchalaridan iborat. Changchilari soni 6 ta. Mevasi sharsimon yoki yuraksimon ko‘sak. Juda ko‘p navlari manzaralni o‘simglik sifatida ko‘paytirilgan. Lotincha nomi xushbo‘y mushk hidini eslatuvchi degan ma’noni beradi [2,3,5].

Tur areali Yevropada, Shimoliy Afrikada va G‘arbiy Osiyoda eng ko‘p turi (60%) O‘rta Yer Dengizini qamrab olgan. O‘sadigan joyi qiyalikdagi maysazorlarda, tog‘ ning o‘rmonli hududlarida va eriyotgan qorli joylarda o‘sadi. Ko‘pchilik turlari Shimoliy Amerikada va Avstraliyada iqlimlashtirilgan.

Muskari tarkibida spirtlar (feniletil, dolchin, benzil), murakkab efirlar (evgenol, dimetilgidroxinon, metilevgenol), aldegidlar, flavanoidlar, askorbin kislota (Vitamin C), shavel kislotalar mavjud.

O‘simglikning farmakologik xususiyatlari uning kimyoviy tarkibiga bog‘ liq. O‘simglikning shamollashga qarshi, antioksidant xususiyati uning C vitaminga boyligi bilan tushuniladi. O‘simgliklarning yer ustki qismidagi flavanoidlar qon tomirlarni mustahkamlashda teri kletkalarini elastikligini va eguluvchanligini (tarangligini) oshiradi, natijada muskarini kosmetologiyada ishlatalishi yosharuvchi ta’sirga ega.

Xalq tabobatida muskarini davolovchi xususiyatlari ma’lum, o‘simglikni tashqi yarani davolovchi, antiseptik, og‘riqsizlantiruvchi vosita, dermatologik xarakterga ega. Shamollash davrida og‘riqsizlantiruvchi, yaralarda va kuyishda ishlataladi. Muskari

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

o‘zini tinchlantiruvchi vositaligi bilan ham ma’lum, shu sababli uni nevrozda, depressiyada va uyqusizlikda ishlataladi. Efir moyi massaj uchun, shamollashlarda ingalyatsiya sifatida bronxitda, nomuntazam va og‘riqli hayz ko‘rishlarda (ginekologik amaliyotida) ishlataladi. Nerv sistemasini tinchlantiradi. O‘simplik barglaridan tayyorlangan spirtli ekstrakt xalq kosmetologiyasida turli tipdagi ayniqsa muammoli quruq va husnbuzarlarda ishlataladi.

Muskari turlari: *Muscari adili*, *Muscari albiflorum*, *Muscari alpanicum*, *Muscari anatolicum*, *Muscari armeniacum*, *Muscari atlanticum*, *Muscari aucheri*, *Muscari babachii*, *Muscari baeticum*, *Muscari botryoides*, *Muscari bourgaei*, *Muscari cazorlanum*, *Muscari commutatum*, *Muscari discolor*, *Muscari dolichanthum*, *Muscari fertile*, *Muscari filiforme* keng tarqalgan [1,4].

Muskarining ko‘plab turlari ko‘rsatilib, uning vegetativ va generativ qismlari, xalq tabobati, shuningdek, boshqa sohalarda ishlatalishi, o‘ziga xos foydali xususiyatlari o‘rganib chiqildi. Muskarini turlarini o‘rganishda quydagi xulosalarga keldik. Albatta birinchi o‘rinda inson salomatligi uchun dorivorlik xususiyatlari borligi va undan tashqari uning manzarali turlari bo‘lib, ularning barcha turlari tarkibida flavanoidlar, vitaminlar, efirlar, aldegidlar, uglevodlar inson salomatligi uchun foydali hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *Muscari* // Ботанический словарь/сост. Н.И. Анненков. — СПб.: Тип. Имп. АН, 1878. — XXI + 645 с
2. Мордак Е. В. Семейство лилейные (Liliaceae) // Жизнь растений: в 6 т. / гл. ред. А. Л. Тахтаджян. — М.: Просвещение, 1982. — Т. 6: Цветковые растения/под ред. А. Л. Тахтаджяна. — 543 с.
3. Губанов И. А. и др. *Muscar ineglectum* Guss. [*M. racemosum* (L.) — Гадючий лук незамеченный // Иллюстрированный определитель растений Средней России. В 3 т. — М.: Т-во науч. изд. КМК, Ин-т технолог. иссл., 2002. — С. 468.
4. Лозина-Лозинская А.С. Род 283. Гадючий лук — *Muscari* // Флора СССР: в 30 т. / гл. ред. В. Л. Комаров. — Л.: Изд-во АН СССР, 1935. — Т. 4 / ред. тома В. Л. Комаров. — С. 412-422..
5. Уралов А.И., Печеницын В.П. Зависимость семенной продуктивности луковичных видов Allium L. от количества листьев на генеративном побеге. Доклады АН РУз. 2015. 74-77 с.